

Raqs bu — go'zallik, so'zsiz muloqot...

# RAQS OLAMI

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi nashri

Gazeta 2020-yildan chiqa boshlagan.

MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA

2023-yil/May-iyun

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

## RAHMAT SENGA AKADEMIYA!

Maqolani yozishni niyat qildim-u, hayajon bosa boshladi. Chunki sening bag'ringda 4 yil bo'lisl va birdaniga ayrilish, xuddi o'z uyidan uzoqlarga ketib, uni sog'inayotgan boladek bo'ldim go'yo.

Ha, to'rt yil har kuni ertalab sening bag'ringga oshiqish, bilim olishga intilish, kursdoshlar bilan birga bo'lisl, ustozlar bilan muloqot qilish, bularning bari men uchun juda huzurbaxsh damlar edi. Bu kunlarni birdan o'tib ketishi yurakni qiyinaydi.

Qiziq, negadir sen haqingda gapirganimda doimo seni "SEN" layman. Xuddi eng yaqin do'stim bilan gaplashganday. Balkim bu sen bilan birga ulg'ayganim sabablidir. Chunki kasb-hunar kollejini tugatib, hayotimdag'i mustaqil qadamimni sening ostonangga qo'ydim. Sen meni xuddi onamdek bag'ringni ochib kutib olding. Seni bag'ringda

ustozlarimdan ta'lism tarbiya oldim. Mustaqil fikrash va qarorlar qabul qilishni o'rgandim.

Darhaqiqat, men sen bilan birga katta bo'lgandekman. Men o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassisidan bakalavr darajasiga ega bo'ldim. Sen esa "Oliy muktab" dan "AKADEMIYA" darajasiga ko'tarilding.

Senda o'qib, salohiyatl ustozlardan ta'lism - tarbiya olib, oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lisl baxtiga musharraf bo'lganimdan mingdan-ming roziman. Kelajakda SEN bergan tarbiyani, ta'limi va mehrni hech qachon yoddan chiqarmayman. Barchasi uchun "RAHMAT SENGA AKADEMIYA!!!"

Shukrona Kamoliddinova,  
"San'atshunoslik" ta'limi yo'naliishi  
bitiruvchisi



Mukarrama Turg'unboyeva tavalludining 110-yilligi munosabati bilan O'zbekiston kasaba uyushmalarisaroysiда haqiqiy raqs oqshomi bo'lib o'tdi. Unda yangidan tashkil etilgan "Bahor" va "Shodlik" ashula va raqs ansambl qizlari san'atlarini namoyish etdilar.

Qolaversa, kechada chet eldan tashrif buyurgan mehmonlar ham o'zlarining san'atlarini tarannum etishdi.

Ma'lumot uchun, Mukarrama Turg'unboyeva o'zbek xoreografiyasining oltin fondidan o'rinn organ "Tanovar", "Katta o'zin", "Janon", "Pilla", "Paxta" kabi o'zbek milliy raqlarining asoschisi va betakror ijrochisi hisoblanadi.

— Mukarrama Turg'unboyeva ijodiga to'xtalanimizda uning serqirra iqtidor sohibi ekanligi va hali o'rganadigan jixatlarimiz ko'pligiga guvoh bo'lamiz, — deydi san'atkoring shogirdlaridan biri O'g'iloy Muhammedova. — Ustozimiz oyoq uchida turib birinchi raqsga tushgan o'zbek

raqqosasi – balet ustasi ekanligi ham hammaga ma'lum emas.

Ikki kun davomida raqs san'atiga bag'ishlangan Xalqaro ilmiy konferensiya, xorijiy raqs ansamblarining malakali mutaxassislari tomonidan mahorat darslari va ustoz san'atkor tavalludiga bag'ishlangan yubiley konserti bo'lib o'tdi.

Tantanali tadbirlar O'zbekiston madaniyat va turizm vazirligi, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi, Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi hamda Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "Bahor" davlat raqs ansambl tomonidan tashkil etildi.

Ishonch.uz saytidan olindi



## O'ZBEK MILLIY RAQSI ASOSCHISI —

# Mukarrama Turg'unboyeva 110 YOSHDA

O'zbek milliy raqs san'atining fidoiysi, atoqli mohir ustasi, baletmeyster va pedagog, SSSR xalq artisti Mukarrama Turg'unboyevaning 110 yillik yubileyi munosabati bilan "Mukarrama Turg'unboyeva merosi va xalqlarning milliy-klassik raqlarining zamonaviy davrda rivojlanishidagi muammolar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi.

Unda Ozarbayjon, Tojikiston, Kanada, Braziliya, Janubiy Koreya, Rossiya kabi mamlakatlardan raqs tadqiqotchilari, mutaxassislari ishtirot etdilar.

O'zDXA axborot xizmati



# GO‘ZAL SURXON VOHASI

## Raqslar jilosida



Yurtimizning Surxon vohasi o‘zining purviqor tog‘lari, yaylovlari, keng adirlari, xosildor yerlari, sersuv daryo va soylari, yam-yashil bog‘lari bilan insonga zavq ularashadi. Erta bahorda tog‘ etagidagi adirlar lolaqizg‘aldoqlar bilan bezanganda, yozning jazirama issiq kunlarida salqin tabiatga ega tog‘lar cho‘qqisidan oqib tushayotgan sharsharalar eng go‘zal go‘shalaridan biri bo‘lib, odam ko‘zini quvnatadi. Ko‘kka qarab bo‘y cho‘zgan tog‘ tizmalari eng baland nuqtasi bulutlarga tutashib ular bilan sirlashayotgandek, uning atrofida qanotlarini keng yoyib viqor bilan uchayotgan burgutlar “Menden zavq ol” deyayotgandek go‘yo. Har bir daraxt barglari, gulga burkangan bog‘lar, xattoki mittigina o‘t - o‘lanlar ham tilga kirib “menden ibrat ol”, “Xayot go‘zal” deya ilhom baxsh etadi.

Qadim qadimdan Surxon vohasi “insoniyat beshigi” hisoblanib kelishi bejiz emas albatta. Tabiatning go‘zalligini, uning qo‘ynidagi jonivorlar xatti xarakatini, turmush va mehnat tarzini, ramziy marosimlar, urf odatlarni o‘zida jamlagan xolda xalq orasida ajoyib “Surxon raqslari” paydo bo‘lgan. Surxon vohasi raqs san‘ati o‘ta milliyligi bilan ajralib turadi. Chunki bu raqlarda asosan kundalik xayot tarzida foydalilaniladigan xatti xarakatlar musiqaga yo‘g‘rilgan xolda ifoda etiladi. Uning uchun alohida bir qoida, chegara mavjud emas. Jaydari qadam tashlash, qush kabi yengil qo‘l xarakatlarini bajarish orqali o‘z milliyligiga mos marosimlarga atalgan o‘ziga xos an‘anaviy raqlarda dunyoga kelgan. Xoliq Xursandov tomonidan “Bir mucha muddat eskilik sarqitlari deya yuzaga chiqarilmagan bu raqlar o‘z yurtining fidoiylari orqali saqlab qolining va avloddan avlodga o‘tib kelmoqda,” deya jumlalar keltirilgan. Xozirgi kunda biror bir bayram tadbirlari bu raqlar ishtrokitisiz o‘tmaydi. Navro‘z bayrami, beshik to‘y, nikox va sunnat to‘ylarini ifoda etuvchi, yoki turmushda ishlataladan jixoz va buyumlarnig ishlatalishini ifodalovchi “Changovuz”, “Chavandoz”, “Tovoq”, “Pichoq”, “So‘zana”, “Qoshiq” va

ko‘plab boshqa raqlarni katta xurmat ila tilga olishimiz mumkin. Qanday raqs bo‘lishidan qat‘iy nazar Surxon raqlarini ijo etar ekanmiz ko‘ngil benixoyat yayarshiga va dilga ko‘tarinki kayfiyat baxsh etishiga takror va takror amin bo‘lamiz. Surxon milliy kuylari qulog‘imizga jaranglashi bilan yurakdagagi jo‘shqinlik, yelka va oyoqlarga chanqovuz sadolariga beixtiyor zavqli raqlarga undaydi. Milliy matolardan urfga oid tikilgan raqs kiyimlari esa bir muddat tomoshabinni uzoq va go‘zal o‘tmishga sayoxat qildirish bilan bir qatorda nafaqat ko‘tarinki kayfiyat, balki hayotga zavq va shavq bilan boqish, kelajakka intilish, umrming xar bir oniga shukronalik hissi paydo bo‘ladi.

Eng e‘tiborli mana shunday boqiy raqlarni o‘ziga xos uslubi mayjud bo‘lib, chanqovuz ohangiga raqs harakatlari uyg‘unlashib, tabiat bilan so‘zlashayotgandek tasvirlanadi. Xar bir usul yo‘nalishining o‘lchovi uchun esa o‘ziga xos nomlar qo‘yib kelingan. Mana shu o‘rinda Shoira Qurbonova va Xoliq Xursandov tomonidan chop etilgan “Surxon raqs maktabi” qo‘llanmasini tilga olish joizdir. Bu qo‘llanmada mualliflar raqs san‘atida “Xorazm”, “Farg‘ona” va “Buxoro” maktablari bilan bir qatorda “Surxon” maktabi mayjudligini va uning o‘ziga xos jixatlarini moxirona yoritib berganlarki bu qo‘llanmani o‘qir ekanman menda Surxon voxasi go‘zalligi va betakrorligiga, uning boy tarixiga va eng asosiysi merosiy raqlariga qiziqish yanada ortdi.

O‘zbekiston Respublikasi Xoreografiya akademiyasi talabasi ekanman “Surxon raqs maktabi” ni o‘z uslubiyoti bo‘yicha kelajak avlodga yetkazish va mana shu maktabga mansub qo‘llannalar yaratishni o‘z oldimga oliy maqsad etib qo‘ydim. Bu maqsadimni amalga oshirishda ustozlarim berayotgan bilim va o‘gtilarga amal qilaman.

**Shahrizoda Olimjonova,**  
“Professional ta‘lim” yo‘nalishi  
1-kurs talabasi

Bastakor va sozanda Muhammadjon Mirzayev ajoyib lirik qo‘shiq, ashula va kuylari bilan el-yurt hurmat-e’tiboriga sazovor bo‘lib, XX asr o‘zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirgan ijodkorlardan biridir.

1913-yilning 13-avgustida Toshkent shahrida ishchi oilasida tug‘ilgan M.Mirzayev zamonaviy o‘zbek musiqa san‘atining rivojlanishiga barakali hissa qo‘shdi va katta musiqiy meros qoldirdi.

U 1920-yildan umumta’lim maktabida o‘qidi. 1932-yili Toshkent to‘qimachilik kombinatiga ishga kirdi va bo‘sh vaqtlarida temiryo‘lchilar klubida tashkil topgan havaskorlik to‘garagiga qatnashib, mandolina chalishni o‘rgandi.



# “BAHOR VALSI” KUYI MUALLIFI

1936-yili O‘zbek filarmoniysi qoshida T.Jalilov rahbarligida tashkil etilgan “O‘zbek xalq cholq‘ulari ansambl”ga ishga qabul qilindi. Mazkur ansambl uchun katta ijrochilik maktabi bo‘ldi. Bu yerda M.Mirzayevga To‘xtasin Jalilov ko‘rsatmasi bilan rubobchi Yusuf Oxun qashqar rubobida ijro etish sirlarini o‘rgatdi. Yosh sozanda tez orada ansamblida ishtirot eta boshladи.

Ikkinchiji jahon urushi yillarida O‘zbek filarmoniysi qoshida bir nechta “Front konsert brigadalari” tuzildi. Shulardan biri 1942-yilda tashkil etilgan bo‘lib, u D.Soatqulov (nay), M.Mirzayev (rubob), S.Aliyev (g‘ijjak), SH.Hamdamov (doira), N.Nalivayko (bayan), xonandalar N.Yakubova va S.Samandarov, laparchi M.Otonova, raqqosa T.Mahmudova kabi san‘atkorlardan iborat edi. Ular o‘z konsert dasturlari orqali jangchilarining jangavorlik ruhi ko‘tarish, vatanparvarlik g‘oyalarini ruhiyatiga singdirish va matonatlari oshirishda faol xizmat qildilar.

Bastakor va sozanda M.Mirzayevning ijodiy faoliyati, ayniqsa, urushdan keyingi yillarda gullab-yashnadi. U 1950-80-yillarda o‘z ustida ko‘p ishslash, izlanish va timsiz ijodiy mehnat orqali yillar davomida xalqimizning xonanda, sozanda va raqqosalari ijro imkoniyatlari hamda uslublariga mo‘ljallab ajoyib asarlar yaratib berdi.

Masalan, xalqimizning faxri O‘zbekiston xalq hofizi Ma’murjon Uzoqov ijrosida bastakorning “Qachon bo‘lg‘ay”, “SHo‘hi jononim mening”, “Yor istab”, “Yo‘lingda” (Furqat she’rlari), “Yakka bu Farg‘onada”, “Ko‘zlarining”, “Suvrating”, “Yolg‘iz”,

“Yana”, (Muqimiyl she’rlari), “Shaydo bo‘libman” (Kamtar so‘zi), “Zor etting” (Jannati so‘zi), “Parvo etib ket” (S.Abdulla so‘zi) kabi ashula va yallalari bor.

Yana shuni aytilib o‘tishjoizki, M.Mirzayev yillarda davomida M.Turg‘unboyeva nomidagi “Bahor” raqs ansamblini, O‘zbekiston davlat filarmoniysi “Shodlik” hamda “Lazgi” ashula va raqs ansamblari repertuarini boyitib keldi. U uch yuzdan ortiq qo‘shiq, ashula, yalla va raqs kuylarini yaratdi. Uning yaratgan asarlarini orasida juda ham mashhur bo‘lib ketgan “Bahor valsi”, “Dildor I va II”, “Intizor etma”, “Ufori sanam”, “Gulnoz” raqs kuylari, “Oltin sandiq”, “Ey gul”, “Uch dugona”, “Toshkent nahori”, “Muhabbat maktubi” (T.To‘la so‘zlari), “Ko‘zlarimga ziyo olaman” va “Chavandoz qizlar” (N.Narzullayev so‘zlari), “Assalom, kelin salom” va “Onalar” (O‘.Rashid so‘zlari) qo‘shiqlari, qashqar rubobi uchun yaratgan “Go‘zal Vatanim”, “Marg‘ilon qizlari”, “Orzu dil”, “Zulfizar”, “Yor uchrashuv”, “Dilrabo”, “Shodlik” kuylari bor.

Muhammadjon Mirzayev zamonaviy o‘zbek musiqa madaniyatining rivojiga qo‘shgan buyuk xizmatlari uchun 1945-yili “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist”, 1965-yilda esa “O‘zbekiston xalq artisti” faxriy unvonlari bilan taqdirlangan.

O‘zbek musiqa san‘atida o‘chmas iz qoldirgan usta san‘atkor M.Mirzayev 1999-yili vafot etdi. U bastakorlik an‘analarini davom ettirgan holda yaratgan asarlarida hayotni, sevgi-muhabbatni, vafo va sadoqatni, mardlik va jasoratni ardoqladi va baralla kuyladi.

Nozima Po‘latova,  
“San‘atshunoslik” ta‘lim  
yo‘nalishi 3-kurs talabasi

# XOREOGRAFIK ASAR — MUALLIFLIK OB'YEKTI SIFATIDA

Mualliflik huquqi bilan himoyalangan narsalar haqida o'ylaganingizda, filmlar, musiqa, adabiy asarlar yodga tushadi — raqs haqida nima deyish mumkin? Ular xoreografiyaning o'ziga xos ifodasini, ritmik va plastik harakatlar to'plamini o'zida mujassam etgan san'at turi sifatida qaralishi mumkin. Ko'pchilik raqs mualliflik huquqi bilan himoyalangan bo'lishi kerak degan fikrga qo'shiladi.

Hozirgi kunda mualliflik huquqlarining buzilishi mavzusi dolzARB masalaga aylanib bormoqda. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning umumiylar qoidalari xoreografiya san'ati ob'ektlarining o'zigaxosxususiyatlarini hisobga olmaydi va shuning uchun bunday ijodiy ish natijalari mualliflarini ularning intellektual huquqlari va qonuniy huquqlarini himoya qilish va himoya qilish uchun ishonchli huquqiy vosita bilan ta'minlamaydi.

Rossiyalik olim, yurist, yuridik fanlari doktori, professor Viktor Dozortsevning fikricha, "Ayrim turdag'i ishlarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash samarali huquqiy himoyaning zarur shartidir. Mualliflik huquqini alohida qismilarga bo'lish va ularni qonun doirasida himoya qilish kerak", degan edi. faqat barcha turdag'i asarlarga taalluqli normalarga qisqartirish tubdan noto'g'ri. Umumiy bilan bir qatorda mualliflik huquqining alohida qismi ham kerak.

Hozirgi vaqtida mualliflik huquqini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'naliishi hisoblanadi. Shunday qilib, xoreografik asarlarga mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilish uchun mualliflar va ijrochilar quyidagi himoya mexanizmlaridan foydalani shulari mumkin:

xoreografik asarni tushuntirish (xoreografik asarning batafsil tavsifi, unga matnli sharhlari, raqs harakatlarining eskizlari va boshqalar);

- xoreografik asar sahnalashtirilgan videoyozuv (u ijro etilganda), asosiy raqs qadamlarining fotosessiyasi (bir qator fotosuratlar) yoki butun raqs asari;

- xoreografik asardagi ijodiy ishning boshqa dalillari (ishchi materiallar, rad etilgan raqs qadamlari).

To'g'ri, bizda merosiy raqlar bor, ular avloddan avlodga o'tishi kerak, bu raqlarni hamma ko'rishi, bilishi zarur degan tushuncha yo'q emas. Ammo uni o'zgartirib, buzib ijro etsa, o'sha raqsga xos bo'lgan liboslar tubdan yangilansa kimdir e'tiroz bildiradi, kimdir esa yo'q. Agar bu raqlarga mualliflik huquqi olinganda edi, yuqorida holatlar kuzatilmas edi. Shuning uchun tadqiqot natijasida xoreografik asarga mualliflik huquqini olish niyoyatda dolzarbekanini ko'rdik.

Olib borilgan izlanishlar natijasiga ko'ra aytish mumkinki, avvallari mamlakatimizda mualliflik huquqlari himoyasiga jiddiy e'tibor berilmasdi. Bugun esa hammasi o'zgardi. Natijada, endilikda mualliflik huquqi obyektlarining nazorat nusxalarini yagona bazada saqlanishi ma'lum qilindi.

Hukumat qarori bilan mualliflik huquqi obyektlarining elektron nazorat nusxalarini yagona bazada saqlash tartibi belgilandi. Unga ko'ra, yagona bazani yuritish, texnikta minlash hamda obyektlarning elektron nazorat nusxalarini bazaga kiritish

vazifalari "Intellektual mulk markazi"ga yuklatildi.

Agar siz xoreografik asarga mualliflik huquqini

olishni istasangiz, raqsning yozma tavsifini iloji boricha batafsil yozing. Tavsif juda umumiy bo'lmasisligi kerak, aks holda unga bo'lgan huquqni isbotlash mumkin bo'lmaydi. Raqsni videoga yozib oling. Agar operator faqat tugmani bosib, faqat suratga olish jarayonini nazorat qilsa, u hammallif sifatida tan olinmaydi. Har bir harakatni ketma-ket suratga oling.

"Nihol" mukofoti sohibasi, "Shuhrat" medalisovrindori, raqqosa Iroda Ismoilovaning "Tovus" raqsi uning tashrif qog'oziga aylanigan desak, xato bo'lmaydi. Mazkur raqsni O'zbekiston xalq artisti Ma'mura Ergasheva sahnalashtirgan bo'lib, "Tovus" raqsimi ilk marotaba Iroda Ismoilova sahnada namoyish etdi. "Tovus" raqsi uchun uning nafaqat libosi, balki musiqasi ham maxsus yaratilgan. U 2002 yil shaxsan Iroda Ismoilova uchun yaratilgan bo'lib, bezaklari va dizayni milliy yo'naliishi bo'lgan. "Tovus" libosi bugungi kuniga kelgunicha strukturasi o'zgarmagan holatda faqatgina o'lchamlari va ranglari o'zgarib kelgan. 2021 yilning mart oyida yangi "Tovus" raqsi uchun shaxsan Iroda Ismoilova tomonidan yangi libos yaratildi. Libos bezaklari faqat tosh bilan ishlangan. Libosning barcha qismiga tovus patlari yopishtilrilgan.

"Tovus" raqsining raqsi mazkur libosda raqsga tushiladi. Raqqosa Iroda Ismoilova mazkur raqs va u uchun maxsus tikilgan libos uchun mualliflik huquqini olish uchun O'zbekiston Respublikasi Adolliy a vazirligi huzuridagi "Intellektual mulk markazi" davlat murojaat qildi. Agentlik xodimlari raqqosaga xoreografik asar uchun mualliflik huquqini

olish uchun qanday hujjatlar kerak ekanligi aytishdi. Natijada raqs qanday ijro etilishi bo'yicha yozma tavsif, harakatlar ketma-ketligidagi foto suratlar, elektron imzo, pasport nusxalarini va to'lovlari bajarish, ariza to'ldirilgandan so'ng ko'rib chiqilishi aytildi. Natijada raqqosa Iroda Ismoilova mazkur raqsga xoreografik asar sifatida mualliflik huquqini oldi.

Olib borgan ilmiy izlanishlarimizga ko'ra, yurtimizda biror bir xoreografik asarga mualliflik huquqi olinmagan ekan. Ammo ko'plab el suygan raqqosalari xoreografik asarga mualliflik huquqi olinsa unga muallifning ruxsatsiz o'zgarishlar kiritishga, qaysidir harakatlarni olib tashlab, qaysidir harakatlarni qo'shishga, shu bilan birga turli raqs matabalarining harakatlarini bir-biriga qorishtirib tashlashini oldi olingen bo'lar edi, degan fikrlarni bildirishdi. Ammo xorijda bu jarayonga e'tibor boshqacharoq. Misol uchun, 2009 yilda Beyonse ko'pchilikni "Single Ladies" qo'shig'iga raqsga tushishga majbur qildi. Videodagi raqs xoreograf Jaquel Nayt tomonidan yaratilgan va 1969 yilda amerikalik raqqosa Gwen Verdon tomonidan The Ed Sullivan shousida ijro etilgan Bob Fosse raqsi asosida yaratilgan edi. Ko'pchilik asl ijironing Beyonse raqsi bilan o'xhashligini payqagan bo'lsa-da, aslida ular ikki xil asar bo'lib chiqdi. Natijada, 2021 yilda Jaquel Knight Single Ladies-dan raqsga tushish huquqini qo'lga kiritgan birinchi xoreograf bo'ldi.

**Manzura Abdurazzakova,**  
"San'atshunoslik" ta'lim  
yo'naliishi bitiruvchisi



# LOREL GREYNING

## O'ZBEK MILLIY RAQSINING XORIJDA TARG'IB QILISHGA QQ'SHGAN HISSASI

Mamlakatimizning madaniy merosining nodir durdonalarini bugungi kunda dunyoning turli nuqtalarida uchratish mumkin. Muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan 2020 yilning 4 fevralida "Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi negizida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi tashkil etildi. Bugungi kunda akademiyamiz xorijning ko'plab universitetlari bilan hamkorlik qilmoqda. Shuningdek, har ikki yilda bir marotaba "Lazgi" Xalqaro raqs festivali o'zbek milliy raqsining xorijda ilmiy o'rganilishiga, targ'ib etilishiga, shu bilan birga ansambllar tashkil etilishiga xizmat qilmoqda.

AQSH "Ipak yo'li" raqsi kompaniyasining asoschisi, professor Lorel Grey butun umrini Buyuk Ipak yo'li mamlakatlari madaniyati, raqlarini rivojlantirishga bag'ishlagan taniqli olim, ijrochi va xoreograf. Doktor Lorel Viktoriya Grey — o'zbek raqslari AQSHda targ'ib etgan ilk san'atkordan. U 1980 yillari Siyetl shahrida o'zbek raqsi dastasini tuzgandi. Lorel Grey-xonim O'zbekistonning mashhur raqqosasi Qizlarxon Do'stmuhammedovadan o'zbek mumtoz raqsi sir-sinoatini o'rganadi. Qariyb yigirma yildan beri har sana AQSHda Markaziy Osiyo raqslari o'rganish to'garagini yuritadi.

Bolaligimdan musiqa va raqs san'atiga qiziqardim, — deydi Lorel Grey. — Shu sabab ota-onam meni shu yo'nalihsidagi turli mashg'ulotlar va to'garaklarga olib borishardi. Shu bilan birga ular til o'rganishga qobiliyatim borligi uchun meni rus tiliga ixtisoslashgan maktabga berishdi. Ulg'ayganim sari sobiq Sovet ittifoqi haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lib bordim. Ittifoq tarkibida ruslardan tashqari ko'plab boshqa millatlar, respublikalar borligi, ularning o'ziga yarasha turfa tili, san'ati, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, mayjudligini o'zim uchun kashf etdim. Turli gazeta va jurnallardan mazkur xalqlarning turmush tarziga oid maqolalarni o'qib qolsam, darrov qirqib olib, alohida-alohida qutichalarga solib, yig'ib borardim. Taqdirtaqozosini qarangki, maktabda o'qib yurgan kezlarimda Ittifoqning bir qancha respublikalariga, jumladan, O'zbekistonga ham sayohat qilish imkonи tug'ildi. O'zbekistonga safarim natijasida yurtingiz odamlari, turmush tarzi, tili, san'ati va madaniyati haqida tasavvurlarim yana-da boyidi. Hamon-hamon esimda, birinchi bor Chorsu bozorida kamalak ranglarda jilolanib turgan atlasni ko'rganimda, "qanday jozibali mato ekan" deb beixтиyor hayqirib yuborganman. Sayohat davomida hayratlarimga hayratlar qo'shildi, bir so'z bilan aytganda mamlakatingiz meni maftun etdi.

Shuning uchun maktabni tugatgach, universitetning Sovet Ittifoqi tarixi yo'nalihsida o'qishni davom ettirdim. Shu bilan birga musiqa va raqs mashg'uloti va to'garaklarga borishni kanda qilmadim.

Men Washington universitetini tugatish arafasida edim, — deydi Grey xonim. — O'shanda rus tilidan tarjima qilishni ham o'rganardim. Bir kuni menga birodarlashgan Toshkent shahridan hay'at kelmoqda, deyishdi. Bilasizmi, AQSHdagi shahar bilan birodarlashgan ilk Sovet shahri bu Toshkent edi. Men toshkentlik raqqosalar turgan joyga bordim. Ular "Bahor" raqs ansambl qizlari ekan. O'shanda gullarga oshufta bo'lib turgan go'zal va yosh o'zbek ayoliga ko'zim tushdi. Men hayotimda ilk bora uchratgan o'zbek —

mashhur raqqosa Qizlarxon Do'stmuhammedova ekan. Ana

shunda ilk bora o'zbek raqlarini ko'rdim va ularga maftun

bo'lib qoldim. Ayniqsa, Qizlarxon-xonim ijrosidagi "Munojot"

raqsi meni sehrlab qo'ydi.

Toshkent va men yashagan Siyetl shaharlari birodar bo'lishgani bois, O'zbekistondan hay'atlar kelib turardi. Bir kuni shaharrasmiylarik kimmitaklifqilsak bo'larkin, debso'rashganida, men ikkilanmay, Qizlarxon Do'stmuhammedovani, deb aytdim. Keyin men "Tanovar" nomli o'zbek raqs dastasini tuzdim va Qizlarxon Do'stmuhammedova bizga raqs sirlarini o'rgata boshladi. Bu AQSHdagi ilk o'zbek raqs dastasi edi. Bir kuni esa Sherli Jo'rayeva ham Siyetiga keldi. Biz birga ashula va raqs ijro etdik.

Men o'zbek raqslari o'rgatish uchun, ularni qiziqtirish uchun bir necha o'n yillarni sarfladim. Hozir nafaqat AQSHda, balki Evropa, Avstraliya va Kanadada ham o'zbek raqlarini o'rgangan talabalarim bor. Havaskorlar ichida keksa ayollar, buvijonlar ham bor. Professional dastamda esa turli millatga mansub yosh raqqosalar bor. Ular orasida nafaqat o'zbek, balki Amerikada yashovchi eronlik, armani, rus, irland hamda afrikalik qizlar bor. Xullas, Xitoydan toki O'rta Yer dengiziga qadar yoyilgan hududlarni qamrab olgan Buyuk Ipak Yo'li bo'ylab yashovchi xalq vakillari bor. Raqs ham xuddi til o'rganishdek gap va uning hadisini olish uchun uzoq yillar kerak bo'ladi.

Biz hammamiz Xorazm raqslari sevamiz. Buyuk Ipak Yo'li raqs guruhi vakillari eng sevadigan raqlardan bira ham shu — Xorazm raqsi. U juda jonli va shodon raqs. Kayfiyatning tushkun payti Xorazm raqslari ijro etsang bas, shodlikka to'lasan. Men 1993 yili Xivaga borish baxtiga mayassar bo'lganman. Bilasizmi, yosh qizaloqlardan tortib, keksa otaxonlar ham raqs tushishadi. Bu g'arbliklar unutib



qo'yan sog'lom insoniy san'atdir. Bilasizmi, ko'plab amerikaliklarga Xorazm raqlarini juda yoqadi. Chunki hamma ham mumtoz va ohista o'zbek raqlarini ma'nosini chaolmaydi va musiqa hamda so'zlarini tushuna olmaydi. Sho'x-shodon Xorazm raqlarini esa barcha birdek xush ko'radi. Men Xorazm raqsi ustasi Gavhar Matyoqubova raqlarini video tasvirlardan tomosha qilganman. Afsus, o'zi bilan shaxsan uchrashmaganman.

Menimcha, O'zbekistonga borib, o'zbek raqslari o'rgangan ilk amerikalik ayol o'zim bo'lsam kerak. Keyinchalik, boshqa talabalarim ham O'zbekistonga borib, raqs o'rganishdi. Bilasizmi, 1979 yili "Bahor" ansambl Siyetga kelib, o'zbek raqlarini ijro etishgani hamon yodimda. O'shanda o'zbek raqlariga maftun bo'lib qolganman. Nazarimda, Sharqqa moyillik mening zuvalamda bor. Bolaligimdan rus musiqasiga qiziqardim. Keyinchalik Markaziy Osiyo musiqasi bilan tanishdim. Esimda, men 11 yoshlik qizaloq edim. O'shanda rasm chizish to'garagiga borardim. Bir kuni yashil kiyimdagি erkaklar, minora, masjid va gumbazlar chizilgan rasmni ko'rib qoldim. Birdaniga yuragimda qandaydir o'zgarish kechgandi, Bu rasmning ma'nosini anglamasam ham unga mahliyo bo'lib qolgandim. Keyin bilsam, yashil — Islom dini rangi ekan. Xullas, yuragimda Sharqqa bo'lgan sevgi va moyillikni tushuntirib bera olmayman. Men Sharq hayoti ichida o'zimni bemalol va erkin his qilaman. Uyimga keling, atrofda so'zanalar, o'zbek piyolasida choy ichamiz, devorlarim to'la sharqona bezaklar.

Lorel Grey bugungi kunda ham o'zbek milliy raqsini dunyoga tanitish, rivojlantirish, targ'ib qilish qilishda nafaqat amaliy, balki ilmiy izlanishlar ham olib bormoqda.

Xayrullo Atavullayev,  
"San'atshunoslik" ta'limga o'nalishi  
biyituvchisi

## RAQS OLAMI

### MUASSIS:

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi



### TAHRIR HAY'ATI:

Mirmuhsin G'OFUROV  
Nozim QOSIMOV  
Jahongir G'ANIYEV  
Hulkar HAMROYEVA  
Matluba MURODOVA  
Dildora QOSIMOVA  
Po'lat TOSHKENBOYEV

### BOSH MUHARRIR:

Shuhrat TOXTASIMOV

**Bizning manzil:**  
100031, Toshkent shahri,  
Yakkasaroy tumani,  
Yusuf Xos Hojib ko'chasi,  
103-uy.

**NASHR UCHUN MAS'UL:**  
To'maris A'ZAM

Gazeta 2018-yil 4-dekabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi  
tomonidan 1002-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Nashr indeksi: 145  
Ofset usulida bosildi.  
Qog'oz bichimi A-3

Bosishga topshirish vaqt: 18:00  
Bosishga topshirildi: 21:25  
Adadi: 100  
Bahosi kelishilgan narxda.

Sahifalovchi:  
Muhammadxon YUSUPOV

Gazeta tahririyat kompyuteridera  
terildi va sahifalandi.

"NISO-POLIGRAF"  
MCHJ bosmaxonasida bosildi.  
Manzil: Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq  
tumani, "Oq ota" MFY, Mash'al qo'rg'oni,  
Markaziy ko'chasi, 1-uy.

Buyurtma: 503  
Hajmi 1 bosma taboq.